

O‘ZBEK TILIDA BIR TOVUSHDAN IBORAT QO‘SHIMCHALAR TAVSIFI

*Feruz Rajabov,
Barno Pardayeva,
QarMII akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari*

Annotatsiya. Bu maqolada o‘zbek tilida bir tovushdan iborat qo‘shimchalar tavsifi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: agglutinatív, murakkab qo‘shimchalar, sintaktik shakl yasovchi, so‘z yasovchi qo‘shimcha.

O‘zbek tili agglutinatív tillar sirasiga mansub bo‘lib, asosga qo‘shimchalar ketma-ket qo‘shilish imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham o‘zbek tili grammatikasida qo‘shimchalar turli xil tasniflanadi. Masalan, shakliga qarab, vazifasiga qarab, asosga nisbatan joylashishiga qarab va hokazo. Yana shunday tasniflardan biri – tuzilishiga ko‘ra sodda va murakkab turlari.

Xuddi so‘zlardagi kabi qo‘shimchalarda ham soddalik va murakkablik mavjud. Unga ko‘ra sodda qo‘shimchalar bir yoki bir nechta tovushdan iborat bo‘lib, “tarixan qanday bo‘lganligidan qat’i nazar, ajralmas, yaxlit, bir tarkibli” [1;105] bo‘ladi, murakkabga esa “aslida mustaqil qo‘shimchani ma’lum vazifa bajarish maqsadida birlashgan holda qo‘llanishiga aytiladi (-chilik, -garchilik, -dagi). Murakkab qo‘shimchalar umuman olganda ajraladi, lekin ba’zi bir so‘z tarkibida ajralmas holga kelgan bo‘ladi, xolos” [1;105]. Shu qoidadan kelib chiqib, murakkab qo‘shimchalarni bemalol tushunib ketish mumkin. Lekin sodda qo‘shimchalarni bir tovushdan iborat qo‘shimchalar va birdan ortiq tovushdan iborat qo‘shimchalarga ajratib o‘rganilmasa, chalkashish hech gap emas. Sodda qo‘shimchalarning o‘rganilishini yanada qulaylashtirish uchun uni o‘z ichida yuqorida ko‘rsatilganidek ikkiga ajratsak, maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Qo‘shimchalar vazifasiga ko‘ra shakl yasovchi va so‘z yasovchi turlarga ajraladi. Sodda va murakkab qo‘shimchalar har ikkala vazifada kela oladi. Buni quyida misollar bilan keltirib o‘tamiz.

O‘zbek tilida 24 ta undosh, 6 ta unli tovush bo‘lib, ularning barchasi ham qo‘shimcha vazifasida kela olmaydi. Ayrim tovushlar esa bir vaqtning o‘zida bir nechta qo‘shimcha vazifasini bajaradi. Masalan, “a” tovushi qo‘shimcha vazifasini bajarganda so‘z yasovchi, lug‘aviy hamda sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha bo‘lib kela oladi. Bu qo‘shimcha yasalma sifatida ot, sifat, fe‘l, ravish turkumlarida qo‘llanadi: qahqaha, jizza, sharshara (ot), aylana, ko‘tara, to‘la (sifat), qiyna, yasha, sana, ata (fe‘l), chippa, tappa (ravish) kabi so‘zlarni yasaydi. Lug‘aviy yasovchi bo‘lib kelganda esa fe‘lga qo‘shilib takror holatda keladi: yoza-yoza, bora-bora, kula-kula.

Sintaktik yasovchi sifatida kelishiga bo'lsa, shaxs-son tarkibida kelgan vaqtda sodir bo'ladi: boraman, yozaman.

1) *Dahshatli gumburlashdan qulog'im chippa bitib qolgandek bo'ldi.*

2) *Qiyinashga qiynadi. Ikki kecha-kunduz suv bermadi.*

3) *Yig'lagansiz! Yig'lagansiz! — Dilnoza kula-kula ayvonga qochib chiqdi. c*

-b qo'shimcha vazifasida kelganda lug'aviy shakl yasovchi bo'lib keladi. U fe'lning ravishdosh shakli yasovchi qo'shimchasi hisoblanadi: qarab, manmansirab, tarab. — *Boravering, — dedi uyqusirab. (O'.Hoshimov)*

-i qo'shimchasi sintaktik shakl yasovchi va so'z yasovchi qo'shimcha vazifalarini bajaradi. Sifat (qishloqi) va fe'l (boyi, tinchi, changi, ranji) yasaydi. *Vilka degan matoq chap qo'lda tutiladi, qishloqi (O'.Hoshimov)*. Sintaktik shakl yasovchi bo'lib kelganda tushum kelishigining badiiy uslubdagi varianti (*Tushda ko'rdim yorimi, g'azaldan*) hamda egalik qo'shimchasining III shaxs birlikdagi shakli (kitobi, daf,tari) sifatida qo'llanadi. *Bir mahal ko'zi ilingan ekan, bo'ynidan allaqanday sovuq, yumshoq narsa o'rmalab o'tayotganini his qildi. (O'.Hoshimov)*

-k qo'shimchasi ot (kurak, elak) va sifat (chirik, o'ksik) yasovchi hamda fe'lning shaxs-son shakli bo'lib sintaktik shakl yasovchi vazifasini bajaradi: bordik, oldik, keldik, ko'rdik. 1) *Qor qotib qolgani uchun kurak har tekkanida g'ashni keltirib qartillaydi.* 2) *Kecha Shahnozaning oldiga borib keldik (O'.Hoshimov).*

-l fe'ldan sifat yasovchi (tugal) unumsiz , qo'shimcha hamda fe'lning o'zlik (qiynaldi, tanildi) va majhul (qaraldi,) nisbat yasovchi qo'shimchasi bo'lib keladi. *Qiynalib ketdim. Qiynalib ketdi-im (O'.Hoshimov).*

-m fe'ldan ot (to'plam, chidam) va unumsiz sifat (qaram) yasovchi hamda sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha sifatida otning I shaxs birlik (bolam, ukam) egalik shakli va fe'lning I shaxs, birlikdagi shaxs-son qo'shimchasi (bordim, keldim) vazifasini bajaradi. 1) *Liliputning o'zginasi, ammo chidamli ekan.* 2) *Zavodda ishlardi (O'.Hoshimov).*

-n qo'shimcha sifatida ravish yasovchi (ertan), majhul (tozalandi, takrorlandi) va o'zlik (tarandi, so'zlandi) nisbat yasovchi qo'shimcha bo'lib qo'llanadi. *Gumburlash tag'in takrorlandi (O'.Hoshimov).*

“q” tovushi boshqa vazifalarda kelmay faqatgina ot va sifat yasovchi qo'shimcha vazifasida keladi. Bunda asos vazifasini doim fe'l bajaradi: charchoq, taroq (ot); qaynoq, yarqiroq (sifat). *Esimda yo'q. Avval qaynoq choynakni otib, keyin baqirdimmi, yo oldin baqirib, keyin choynakni otdimmi?.. (O'.Hoshimov).*

-r qo'shimchasi fe'l yasovchi qo'shimcha bo'lish bilan birgalikda (eskir, qisqar) fe'lning vazifa shakllaridan bo'lgan sifatdosh vazifasida ham ishlatiladi. Masalan, o'qir-o'qimas.

-s qo'shimchasi so'z yasovchi vazifasida taqlid so'zlardan sifat yasaydi va boshqa vazifani bajarmaydi: gulduros.

-t qo‘shimchasi fe‘lning orttirma nisbat yasovchi qo‘shimchasi bo‘lib keladi va har doim ikki bo‘g‘inli unli bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilib ishlatiladi: to‘lat, o‘qit, to‘qit, ishlat. *Tank o‘qlash emas, boshlang‘ich sinf bolalarini o‘qitish yarashadi Xayriddinga! (O‘.Hoshimov)*

“u” tovushi ham qo‘shimcha bo‘lib kela oladi, ammo u na so‘z va na shakl yasovchi bo‘lib keladi, balki undosh tovush bilan tugagan so‘zlarning ma‘nosini kuchaytirib-ta‘kidlab keladigan yuklama vazifasini bajaradi. Bu qo‘shimcha asosdan ajratib chiziqcha bilan yoziladi: keldim-u, ko‘rdim-u va hokazo. *Boshqalarni bilmadim-u, menga «tochka»da turishdan ko‘ra shunisi ko‘proq yoqadi (O‘.Hoshimov).*

-v qo‘shimchasi unli bilan tugovchi so‘zlarga qo‘shilib lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimcha ya‘ni harakat nomini hosil qiladi: o‘quv, saylov. *Oliy o‘quv yurtiga kirishda imtiyoz, birinchi navbatda telefon olish, birinchi navbatda kvartira olish, invalid bo‘lsang, navbatsiz xususiy avtomashina olish...*

-y fe‘l yasovchi (qoray) qo‘shimcha bo‘lib, so‘zlar takror holatda qo‘llanganda lug‘aviy ravishdosh yasovchi qo‘shimcha vazifasini bajaradi (o‘qiy-o‘qiy). Shaxs-son va zamon tarkibida kelganda esa sintaktik qo‘shimcha sifatida ishlatiladi: o‘qiyman, ishlaydi. 1) *Ertasiga ertalab o‘zi yig‘lay-yig‘lay Grishaning dabdala bo‘lib ketgan yuzini silab iltijo qildi.* 2) *Nazarida to‘shak la‘nati kun sayin sovib borayotganga o‘xshaydi (O‘.Hoshimov).*

-sh qo‘shimchasi fe‘lning lug‘aviy shakl yasovchisi bo‘lgan harakat nomidagi -ish qo‘shimchasining unli bilan tugagan asosdan keyin keluvchi variantidir (o‘qish, saylash). Bundan tashqari birgalik nisbatining qo‘shimchasi ham bo‘la oladi: tarashdi, qarashdi. *U shoir-poirlarni tanimas, adabiy kitob o‘qishga toqati yo‘q edi. (O‘.Hoshimov)*

-ch so‘z yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, fe‘ldan ot va sifat yasab keladi: quvonch, o‘kinch, yupanch, jirkanch, tinch. *«Dard ketidan quvonch keladi», deganlari rost ekan. (O‘.Hoshimov)*

-ng sintaktik shakl yasovchi qo‘shimcha sifatida II shaxs birlikdagi egalik (kitobing, daftaring) hamda II shaxs birlikdagi shaxs-son qo‘shimchasi vazifasini bajaradi. 1) *Qayerda bo‘lsang ham joning omon bo‘lsin...* 2) *Birovning uyiga bostirib kirding — bir! Urub, mayib qilding — ikki! Millatchilik qilding — uch...* (O‘.Hoshimov)

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, bir tovushdan iborat qo‘shimchlarning barchasi asosdan keyin keluvchi qo‘shimchalar hisoblanib, asosdan oldin keluvchi qo‘shimcha (prefiks) larda bunday holatlar kuzatilmaydi.

O‘zbek tilida qo‘llaniluvchi bir tovushdan iborat qo‘shimchalar asosga ketma-ket qo‘shilish imkoniga ega. Xususan,

- 1) so‘z yasovchi+so‘z yasovchi qo‘shimchalar: tin+ch+i;
- 2) so‘z yasovchi+sintaktik shakl yasovchi: so‘ra+q+i

3) so‘z yasovchi+lug‘aviy shakl yasovchi: qiyin+a+l

Ushbu misollardan ma‘lum bo‘ldiki, tilimizda bir tovushdan iborat qo‘shimchalar keng o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham biz ularni sodda qo‘shimchalar tarkibida alohida bo‘lim sifatida o‘rganishni taklif qilamiz. Bu esa qo‘shimchalarni o‘rganishda yengillikka sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B.Mengliyev, O‘.Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma.:T – “Akademiya nashri”, 2011.
2. R.Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T. – 2009.
3. O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. T – “Sharq”, 1998.